

IQTISODIYOTNING O'ZBEK TILIDAGI TERMINOLOGIYASI

Nabiyeva Umeda Valizoda

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Iqtisodiyot fakulteti talabasi

E-mail: umedanabiyeva14@gmail.com

Telefon raqami: +998970306205

***Annotatsiya:** Bugun biz ushbu maqolada iqtisodiyot, hisob-kitob asoslari, bank, moliya sohasiga oida terminlarning o'zbek tilida tarkib topishi, shakllanishi va rivojlanishi haqida ko'rib chiqamiz.*

***Kalit so'zlar:** iqtisodiyot, bank, moliya, marketing, reklama, iqtisodiyot, veksel, patent, polis, diversifikatsiya, modernizatsiya, amortizatsiya, infratuzilma, subsidiya, dividend,*

Kirish.

Ma'lumki, har qanday jamiyatda iqtisodiyot muhim rol o'ynaydi. Shu sababli iqtisodiyotga oid terminlar aniq, lo'nda va mantiqan to'g'ri bo'lishi zarur. Ushu so'zlarni amalda qo'llash, o'rganish uchun bizga "Terminologiya" fani kerak bo'ladi. Terminologiya - muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish tarmog'ining, san'at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog'liq terminlari majmui va tilshunoslikning terminlarni o'rganuvchi sohasi. Ushnu soha bevosita Neologizmlar bilan chambarchas bog'liq. Neologizmlar (yun. neos — yangi, logos — so'z) — jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo'lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so'zlar. Neologizmlarning yaralishi va tarqalishi asosan fan-texnikaning rivojlanishi bilan bog'liq. Hozirgi kunda nafaqat fan-texnika, balki ilmiy, rasmiy, publitsistik, so'zlashuv uslublarida va barcha sohalarda, shuningdek iqtisodiy sohada ham bir qancha neologizmlarni uchratmoqdamiz. Neologizmlarning yangiligi dastlab paydo bo'lgan vaqtlardagina sezilib turadi: vaqt o'tgach, ular "yangilik" xususiyatini yo'qotib, odatda, faol so'zlar qatoriga o'tadi. Masalan, o'zbek tili uchun bir qancha yil davomida yangi hisoblangan marketing, reyting, tender, reklama so'zlari hozirgi kunda umumiste'moldagi so'zlarga aylanmoqda.

Asosiy qism.

Birinchi navbatda iqtisodiy yoki biznes soha neologizmlari haqida to'xtalishdan avval, neologizm va o'zlashma so'zning farqi, o'zlashma so'z nima ekanligi va o'zlashma neologizmlar haqida fikr yuritishni joiz deb bildik. O'zlashma¹ so'zlar bizning tilimizga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar bo'lib, hozirda umumistemoldagi so'zlarimiz singari foydalanamiz. O'zlashma so'zlar barcha tillardan kirib kelishi mumkin, masalan: ispan, ingliz, rus, arab, turk va

¹ O'zbek tiliga xorijiy tillardan kirib kelgan iqtisodiy va biznes sohadagi neologizmlar, Manzura ABJALOVA, Khursandoy GELDIYEVA

boshqalar. Hozirgi kunda o'zlashma so'zga aylangan so'zlarga misol qilib bar, lider, film kabilarni ololamiz. Ko'pchilik insonlar hech qanday o'zgarishlarsiz va qo'shimchalarsiz o'z holicha olingan o'zlashma so'zlarni yaxshi bilishadi, ammo qanday turdagi o'zlashmalar bo'lmasin insonlar ko'p holatlarda ularning qaysi tildan kirib kelganligini bilmaydi. Masalan: jilet, palto, bajole kabi fransuz tilidan kirib kelgan so'zlardan foydalanishadi, ammo aynan shu tildan kirib kelganligini aniq bilishmaydi.

Kundalik turmushda o'zlashma so'zlar bilan terminlarning ham farqini bilib olishimiz mumkin. o'zlashma so'zlarga yuqorida ta'rif berib o'tdik. Termin lotincha "terminus" so'zidan olingan bo'lib, "oxiri", "chek", "chegara", "tugash" degan ma'nolarni bildiradi. Termin – bu maxsus so'z bo'lib o'zining alohida belgilari bilan chegaralanadi, shuningdek fan-texnika, iqtisodiyot, siyosat, diplomatiya va boshqa sohalarning o'z ichki doirasida qo'llaniladigan, soha vakillarigina tushunadigan bir ma'noli, aniq so'zdir. O'zlashma so'zlar va neologizmlarni kengroq tarqalgandan so'ng barcha tushuna oladi, ammo terminlarni ma'lum bir soha vakillari qo'llaydi va tushunadi. Fan-texnikaning jadal rivojlanishi hamda internet va intera-net tizimi asosida turli tilda so'zlashuvchi kishilarning fikr almashinishi natijasida XX asrning 90- yillaridan so'ng dunyo miqyosida globallashtirilgan zamonaviy texnologiyalarga oid so'z va atamalarning baynalmillashishi kuchaydi. Shuningdek, bu holat jamiyatning siyosiy, ma'naviy, madaniy, iqtisodiy sohalaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq.

Iqtisodiy neologizmlar deb aynan shu sohada qo'llanilayotgan va yangi kirib kelgan yangi so'zlardir. Shuningdek, barcha soha doirasida foydalanilayotgan neologizmlar ham turli xil jarayonlar vositasida vujudga keladi. Quyida iqtisodiy neologizmlardan bir qanchasini ko'rib chiqamiz:

VEKSEL - (nem. Wechsel, aynan-ayirboshlash)- qarz majburiyatlari xususida yozma holda berilgan maxsus ko'rinishdagi qimmatbaho qog'oz. qarz bergan tomon vekselda ko'rsatilgan muddat tugashi bilan qarzni talab qilish huquqiga ega.

PATENT - (lot. patens-guvohnoma, yorliq)- 1) xususiy tarzda tadbirkorlikning biror bir turi bilan shug'ullanishga ruxsat beruvchi guvohnoma, tegishli hujjatlar asosida moliya organlari tomonidan beriladi; 2) ilmiy kashfiyot va ixtiroga mualliflikni tasdiqlovchi guvohnoma. Patent davlat tomonidan patentlashtiriladi.

POLIS - (fr. police, ital, pollissa-tilxat)-shaxsiy yoki mulkiy sug'urta shartnomasi tuzilgani va uning shartlari haqidagi hujjat.

DIVERSIFIKATSIYA - (lot. diversifi catio — o'zgarish, xilma-xil taraqqiyot) korxonalar (birlashmalar)ning faoliyati sohalarini va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi.

MODERNIZATSIYA - (fransuzchadan moderne — „eng yangi“, „zamonaviy“) — biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o‘zgartirish. M.Modernizatsiyada mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi

AMORTIZATSIYA - (lot. amortisatio — qoplash), asosiy kapital (fondlar) amortizatsiyasi — asosiy kapital (mashina, mexanizmlar, jihozlar, binolar, inshootlar)ning ekspluatatsiya jarayonida eskirishi va ayni paytda ular qiymatining muayyan davr davomida ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlarga o‘tib borishi.

INFRATUZILMA - (lotincha: infra — „ostida“) — ishlab chiqarish va tovar muomalasi, shuningdek, inson hayot faoliyati uchun zarur bo‘lgan me‘yoriy sharoitni ta‘minlashga xizmat kiluvchi turli-tuman yordamchi xizmat ko‘rsatuvchi sohalar (tashkilot, korxonalar va muassasa) majmui; nomoddiy ishlab chiqarish sektori.

SUBSIDIYA - (lotincha: subsidium — yordam, nafaqa, qo‘llabquvvatlash) — davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar mablag‘lari yoki maxsus fondlardan jismoniy va yuridik shaxslarga, mahalliy organlarga, boshqa davlatlarga beriladigan pul mablag‘i yoki natural shaklidagi yordam.

DIVIDEND - (lotincha: dividendum — taqsimlanadigan narsa) — aksiyadorlar jamiyati foydasidan aksiya egasiga har yili beriladigan va uning daromadiga aylangan qismi. Dividend miqdori aksiyadorlar jamiyatining sof foydasi, aksiyalar soni va qiymatiga bog‘liq.

DOTATSIYA - (lot. dotatio — tuhfa) — 1) ma‘lum harajatlarni qoplash uchun iqtisodiyotning bir sub‘yekta tomonidan ikkinchisiga qaytarib bermaslik sharti bilan pul mablag‘i berilishi. Dotatsiya, odatda, davlat byudjetidan ajratiladi. Ammo firmalar, korporatsiyalar va uyushmalar o‘z tarkibiga kiruvchi turli bo‘linma va shoxobchalarga ham moliyaviy ko‘mak tariqasida dotatsiya beradi.

LIKVIDATSIYA - (tugatish, tarqatish, barham berish) - firma yoki korxonalar faoliyatining aksionerlar yig‘inining, xo‘jalik sudining qaroriga muvofiq, bankrotlikka uchrashi, qayta tashkil etilishi tufayli to‘xtalishi.

DEVALVATSIYA - (de va lot. valeo — qiymat) — milliy pul birligi kursining chet el valyutalari (erkin almashtiriladigan valyutalar, xalqaro hisob birliklari)ga nisbatan pasaytirilishi. D. davlat tomonidan rasmiy ravishda e‘lon qilinadi va qonunchilik asosida amalga oshiriladi.

DEFILYATSIYA - inflyasiya davrida chiqarilgan muomaladagi ortiqcha qog‘oz pulni kamaytirish; davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul-kredit tadbirlari (soliqlarni oshirish,

qimmatli qog'ozlar sotish, tovar narxlari darajasini pasaytirish, ish haqi o'sishiga yo'l qo'ymaslik, tashqi savdoni jonlantirish, banklar hisob stavkasini oshirish, omonatlar o'sishini rag'batlantirish va b.).

DEPOZIT - (lot. depositum — omonat, asrab qo'yilgan) — 1) bankka qo'yilgan omonatlar. Bunday Depozitlarning muddatli (muayyan muddatdan so'ng qaytarib beriladigan) va talab qilib olinadigan (omонат egasining birinchi talabi bilan beriladigan) turlari bor.

DISKONT - (ing . discount — chegirma, lot. computare — hisobga olmoq) — 1) qimmatli qog'ozning fond birjasida ayni paytda sotilayotgan narxi bilan nominali yoki uni qaytarib so-tib olishdagi narxi o'rtasidagi farq (mas, nominali 1000 so'm belgilangan aksiya birjada 950 so'mga sotib olingan, D. $1000 - 950 = 50$ so'mga teng); 2) valyutaning forvard kursi (bitim tuzilgan paytda belgilangan, lekin pul to'lovi keyinchalik amalga oshiriladigan valyuta kursi) bilan uning ayni paytda naqd to'lovi amalga oshiriladigan kursi o'rtasidagi farq (mas, dollarning forvard kursi yarim yildan so'ng 100 so'm bo'ladigan bo'lsa, uning ayni paytdagi kursi 90 so'm, D. $100 - 90 = 10$ so'm bo'ladi); 3) tovarning turli muddatlarda yetkazib berilishi bilan bog'liq narxlari o'rtasidagi farq (mas, kompyuterning ikki oydan keyin sotiladigan narxi 2 mln. so'm bo'lsa, uchinchi oyda uning narxi 1,9 mln. so'm bo'lishi mumkin (D. $2 - 1,9 = 0,1$ mln. so'mga teng); 4) ishlab chiqarilgan tovar sifatining mavjud me'yorlar yoki shartno-maga muvofiq kelmasligi natijasida tovar narxining pasayishi (narxdan tashlama); 5) banklar tomonidan vekselni muddatidan ilgari qaytarib sotib olish (veksel hisobi); 6) vekselni qayta sotib olgani uchun bank undiradigan foiz.

INTENSIV - texnika, moddiy va mehnat resurelari potensialining har bir birligidan yanada to'liqroq foydalanish yo'li bilan i.ch. jadalligini oshirish. Zamonaviy texnika va texnologiyani joriy etish, i.ch. jarayonini mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish, mehnat resurelaridan ratsional foydalanish orqali barcha jabhalarda yuqori ko'rsat-kichga erishishga asoslanadi.

EKSTENSIV - texnika, moddiy va mehnat resurelari potensialining har bir birligidan yanada to'liqroq foydalanish yo'li bilan i.ch. jadalligini oshirish. Zamonaviy texnika va texnologiyani joriy etish, i.ch. jarayonini mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish, mehnat resurelaridan ratsional foydalanish orqali barcha jabhalarda yuqori ko'rsat-kichga erishishga asoslanadi. Intensiv o'sish ekstensiv o'sishdan mavjud i.ch. kuvvatlari, texnik, moddiy resurelarni samarali ishlatish bilan farq qiladi.

FRANSHIZA - (gallits. franchise — imtiyoz), yoki tijorat konsessiyasi — bozor subyektlari oʻrtasidagi munosabatlar turi; bir tomon (franchayzer[1]) ikkinchi tomonga (franchayzi) tadbirkorlikning maʼlum bir turida ish yuritishning oʻzi tomonidan ishlab chiqilgan biznes modelidan: franchayzerning brendi, savdo belgisi, xom ashyosi va texnologiyalaridan foydalanib, uning nomidan ish yuritishga haq evaziga (akkord; bir yoki koʻp martalik toʻlov) ruxsat berishi.

INVENTARIZASIYA - Korxonalar, muassasa, xoʻjalik va shu kabilarning balansida turgan ashyolarning mavjudligini, qanday saqlanayotganligini, shuningdek, ombor xoʻjaligi boʻyicha maʼlumotlarni davriy ravishda tekshirishdan oʻtkazish, yoʻqlama qilish.

INVESTITSIYA (lotincha: investio — „oʻrash“) — iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida oʻz mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq, muddatli kapital kiritish (qoʻyish). Pulning vaqt (zamon)ga bogʻliq qiymati nazariyasiga koʻra, investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablagʻlar qoʻyishdir.

INVESTOR - Investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi shaxs, tashkilot yoki davlat.

INDEKS - (Lotincha: index — koʻrsatkich, roʻyxat) — nom, ism yoki boshqa kombinatsiyalar koʻrsatkichi va roʻyxati hisoblanadi. Shuningdek, indeks, shartli ifodalar (harfli, raqamli) tizimi, bibliografik, nashriyot, kitob savdosi, pochta, oziq-ovqat mollari, dorilarning chiqarilgan vaqti va saqlash muddatini ifodalashi ham mumkin.

LIZING - (ing. lease foydalanish) — mashina, asbob-uskuna, transport vositalari, ishlab chiqarish inshootlarini uzoq muddatli ijaraga olish; uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar eksportini kreditlashning shakllaridan biri.

LIKVIDLIK - aktivlarning bozor narxiga yaqin boʻlgan narxda tezlik bilan sotilish qobiliyati. Aktivlar yuqori likvidli, past likvidli va likvidsiz turlarga boʻlinadi.

LOGISTIKA - tovar va maʼlumotlar oqimini ishlab chiqaruvchidan to oxirgi isteʼmolchigacha boʻlgan barcha bosqichlarida boshqarishni optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Logistikaning maqsadi xarajatlarni kamaytirish va korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, mijozlarga xizmat koʻrsatish sifatini oshirishdir.

PARITET - (lotincha: paritas "tenglik") - baʼzi parametrlarda ikki yoki undan ortiq tomonlar oʻrtasidagi munosabatlar tengligiga aytiladi. U kuchlarning nisbiy muvozanat holatini, maqsadlar ekvivalentligini, toʻlov vositalarining tengligini, huquq va majburiyatlarning tengligini va hokazolarni anglatishi mumkin.

RENTABELLIK - (nem. rentabel — daromadli, foydali) — korxonada yoki tadbirkorlikning daromaddorligi, samaradorligi; mikroiqtsodiy miqyosdagi iqtisodiy faoliyatning samaradorligi. R. korxonada yoki tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy natijalarini baholashda qoʻllaniladigan asosiy koʻrsatkich.

AKSIYA - (nemischa: Aktie; niderlandcha: Actie; lotincha: actio — farmoyish; ruxsatnoma, faoliyat) — aksiyador jamiyat chiqargan qimmatbaho qogʻoz. Oʻz egasining aksiyadorlar jamiyati kapitalida hissasi borligini va shunga muvofiq, topilgan foydaning bir qismini dividend shaklida olishini, uni boshqarishda ishtirok etish huquqini tasdiqlaydi.

AKKREDITIV - (lotincha: accredo — ishonaman): naqd pulsiz hisob-kitoblar olib boriladigan bank hisob varagʻi; tomonlar oʻrtasida tuzilgan shartnomaga koʻra amalga oshiriladigan oʻzaro hisob-kitob turi.

DEBITOR - (lot. debitor) — mulk yoki pul qarzi boʻlgan jismoniy yoki yuridik shaxs, iqtisodiy subʻyekt. Iqtisodiy xoʻjalik aloqalarida korxonada, firma, kompaniya va b. ga D. — qarzdorlar (boshqa firma, korxonada, kompaniya, shuningdek, fuqarolar) toʻlashi lozim boʻlgan qarzlarning miqdori debitorlik qarzini hosil qiladi.

KREDITOR - (eng. creditor) — ssuda bergan va shu sababli debitordan uni oʻz vaqtida qaytarishi yoki boshqa majburiyatlarni ijro etishni, birinchi navbatda foizlar toʻlashni talab qilish huquqiga ega boʻlgan subʻyekt (yuridik yoki jismoniy shaxs).

KALKULYATSIYA - (lot. calculatio, calculo — hisoblayman, hisob-kitob) — mahsulot birligi yoki bajarilgan ish tannarxini hisoblab chiqarish. K. tannarx boʻyicha reja yoki hisobotning asosiy koʻrsatkichlaridan biri hisoblanadi. Korxonada aniq bir turdagi mahsulot birligini i.ch. va sotish boʻyicha, shuningdek, xalq xoʻjaligining sanoat, transport va b. tarmoqlarida ish birligini (tashish, taʼmirlash va b.) bajarish uchun qilingan harajatlarni pul shaklida ifoda etadi.

SANATSIYA - (lotincha: canatio — sogʻlomlashtirish, davolash) — bankrotlik xavfidan qutqarish, korxonalar, firmalar, kompaniya va boshqalarning moliyaviy ahvolini yaxshilashga qaratilgan davlat va bank choratadbirlari tizimi. Asosiy yoʻnalishlari — nochor korxonalarini kreditlash, qayta tashkil etish, ishlab chiqariladigan mahsulotlar yoki faoliyat turlarini oʻzgartirish, oʻz xomiyligiga oʻtkazish va boshqa S. bozor iqtisodiyoti uchun tabiiy narsa, chunki bozor qonuniyatlariga koʻra, bir korxonaning gullabyashnab ketishi, boshqasining tang ahvolga tushishi yuz beradi. S. orqali davlat bozor iqtisodiyotiga taʼsir etadi.

BROKER - (ing. broker), makler — fond, tovar, valyuta birjalarida oldisotdi bitimlari tuzishda vositachilik (dallollik) qiladigan ayrim shaxs yoki firma. B.lar,

odatda, mijoz topshirig'iga ko'ra va uning hisobiga ish yuritadi, kafolat beruvchi hisobiga o'z nomidan savdo bitimlari tuzishi ham mumkin.

TENDER - (ing. tend — xizmat ko'rsatish) — 1) ochiq turdagi (ochiq tender) yoki cheklangan sondagi ishtirokchilar uchun yopiq turdagi (yopiq tender) raqobatli savdo-sotiq; buyurtmani joylashtirishning tanlov shakli; 2) qimmatli qog'ozlarga obuna bo'lish, muddatli shartnoma bo'yicha tovarlar yetkazib berish, shartnomalar tuzish to'g'risidagi ariza, yozma taklif; 3) xalqaro bozorda mashina-uskunalar xarid etish, qurilish-montaj ishlarini bajarish, injiniring xizmatlari ko'rsatish uchun tanlov asosida buyurtmalar berish.

Xulosa.

Iqtisodiyotimizning jahon miqyosida rivojlanishi qanchalik muhim bo'lsa, iqtisodiyot terminlarni o'rganishimiz va ishlatishimiz shu qadar muhim. Chet tillarini bilish bizga terminlarni mazmunini tez va oson o'rganishda fundament bo'lib xizmat qiladi. Ilm yo'lidagi aziz inson, yuqorida keltirilgan terminlarning mazmuni sizning ilmiy va amaliy faoliyatingiz uchun ko'makchi bo'lishiga umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbek tiliga xorijiy tillardan kirib kelgan iqtisodiy va biznes sohadagi neologizmlar, Manzura ABJALOVA, Khursandoy GELDIYEVA
2. Мирзаев Кулмамат Жанзакович, & Набиева Умеда Вализода. РОЛЬ СФЕРЫ УСЛУГ В ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ,
3. Ulug'murodov Farhod & Nabiyeva Umeda. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI ISHSIZLAR SONINI KAMAYTIRISH
4. Suyarov Hazratqul Usmonkulovich Nabiyeva & Umeda Valizoda & Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li. MODERN METHODS AND MEANS OF ENSURING INFORMATION SECURITY
5. O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING JAHON TAJRIBASIDAN FOYDALANISH YO'LLARI, Nabiyeva Umeda Valizoda.
6. IQTISODIY TIZIMLARNI BOSHQARISH JARAYONLARIDA MENEJMENT O'RNI, Nabiyeva Umeda Valizoda & Suleymanova Asel Armanovna.
7. https://www.researchgate.net/publication/363799103_O'zbek_tiliga_xorijiy_tillardan_kirib_kelgan_iqtisodiy_va_biznes_sohadagi_neologizmlar
8. <https://www.wikipedia.org/>